

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAKARIMOV MIRSHAROFFIDDIN MIRZAABDURAXIMOVICH

**ARRA TISHLARIDAN HAVO YORDAMIDA TOLA AJRATIB OLUVCHI
FORSUNKALARNI TADQIQ QILISH VA JORIY ETISH ORQALI
SAMARADORLIKNI OSHIRISH**

05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan – 2024 yil

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
science**

Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabduraximovich

Arra tishlaridan havo yordamida tola ajratib oluvchi forsunkalarni
tadqiq qilish va joriy etish orqali samaradorlikni oshirish 3

Мирзакаримов Миршароффиддин Мирзаабдурахимович

Исследования и внедрение высокопроизводительных
форсунок отделяющих волокно с зубьев пил при помощи воздуха21

Mirzakarimov Mirsharoffiddin

Research and implementation of high-performance nozzles that
separate fiber from saw teeth using air41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAKARIMOV MIRSHAROFFIDDIN MIRZAABDURAXIMOVICH

**ARRA TISHLARIDAN HAVO YORDAMIDA TOLA AJRATIB OLUVCHI
FORSUNKALARNI TADQIQ QILISH VA JORIY ETISH ORQALI
SAMARADORLIKNI OSHIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/T1602 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azizov Shuxrat Mamatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Rosulov Ruzimurad Xasanovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Ergashev Jamoliddin Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 3 avgust soat 9⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-71, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-o'quv binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (590 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-71

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 19 iyul kuni tarqatildi.
(2024 yil 15 iyundagi 16-raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

Sh.A.Mahsudov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.M.Safarov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasiga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi uchun uni ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, paxta xomashyosini dastlabki ishlash jarayonida qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyo miqyosida 23-24 mln. tonna atrofida paxta tolasini ishlab chiqariladi, lekin uning yillik iste'moli ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 23,5-25,0 mln tonnani tashkil etmoqda. Yetishmayotgan tolaning hajmi tola xomashyo zaxiralarining hisobiga qoplanib olmoqda»¹, resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish jarayonida ishchi organlarini optimizatsiya usullari yordamida paxtaga ishlov beruvchi mashinalar ish unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlar matematik modellarini ishlab chiqish orqali mashinalarning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash hamda olinayotgan paxta tolasining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish va maxsulot tannarxini pasaytirish masalalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyalarni texnologik mashinalarni zamon talablari darajasida ishlab chiqishda AQShning "Lummus", Xitoyning "Shandon", Hindistonning "Bajaj" kompaniyalari yetakchilik qilmoqda. Mamlakatimizda mashinasozlikning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi olimlarini ishlab chiqarishda mavjud texnologik mashinalardagi ishchi organlarni takomillashtirish va uzatmalarni ilmiy asosda ishlab chiqish orqali sanoatga mahalliy qilishgan paxta tolasini arra tishlaridan to'la va sifatli yechib olish va so'rib oluvchi yangi ilmiy-texnikaviy texnologik yechimlarini hisobga olgan konstruksiyalarni qo'llash orqali kalta tolalar chiqishini, tolani shikastlanishini kamaytiruvchi texnologik yechimlarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mavjud paxta tozalash korxonalarida jin ishchi organlari yangi konstruksiyalarini yaratish, resurslarni tejash, mashina ish unumdorligini, ishchi organlarini samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash masalalariga qaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, ularni amalda qo'llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli qarorida: «...makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ...iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani dastlabki ishlash sanoatidagi asosiy texnologik mashinalardan biri jinda arra tishlaridan havo yordamida tola ajratib oluvchi yangi konstruksiyadagi forsunkalarni tadqiq qilish va joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish va fundamental asoslarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida» gi 2017-yil 28-noyabrdagi PQ-3408-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Energetika, energiya tejamkor, resurs tejamkorlik, transport, mashinasozlik va asbobsozlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxtaga ishlov berish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, jin ishchi organlari yangi konstruksiyalarini yaratish, resurslarni tejash, mashina ish unumdorligini, ishchi organlarini samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash masalalari bilan chet ellarda J.Clif Boykin, S.E.Hughs, E.Whitney, Derek P. Whitelock, Gregory A. Holt, Thomas D. Valco, Carlos B. Armijo, Michael D. Buser, Dennis S. Findley, Edward M. Barnes, Michael D. Watson, Dilpreet S. Bajwa, Sreekala G. Bajwa, Tom C. Wedegaertner, Phillip Wakelyn, Kelley Green, Dwayne Alford, Robert “Bobby” Greene, Jimmy Roppolo, Harrison Ashley va boshqa olim va muhandislar shug‘ullanganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan R.G.Maxkamov, I.T.Maksudov, A.Ye.Lugachev, M.Tillaev, M.Agzamov, X.T.Axmedxodjaev, B.M.Mardanov, N.Z.Kamolov, A.P.Parpiev, X.Saadi A.Djuraev, Sh.M.Azizov, R.Murodov, Sh.T.Ergashev, R.Sulaymonov, O.Sarimsakov, K.Sobirov, I.Sobirov, M.Abduvoxidov, D.Muhammadiev, S.Z.Yunusov, N.Safarov. J.S.Ergashev, I.G.Shin, A.Umarov, A.Sarimsakov va boshqalar arrali jin mashinasi ish unumini oshirish, resurstejamkor ishchi organlar konstruksiyalarini ishlab chiqish va jin mashinasi samaradorligini oshirish bo‘yicha bu soha rivojiga munosib hissa qo‘shdilar va bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Lekin hozirga qadar chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan chigitdan tola ajratish mashinalarining yangi, samaradorligi yuqori jinlash texnologiya va konstruksiyalarini, ishchi organlarni harakat rejimlarini aniqlash orqali resurs tejamkor ratsional mexanizmlarini ishlab chiqish, optimallashtirish masalalari o‘zining samarali yechimini yetarlicha topmagan.

Mavjud turli markadagi jin mashinalarida ishlab chiqarilgan tola sifati va chigitning shikastlanishi, tolani sifatli arra tishlaridan yechib olish natijalarini qiyosiy tahlili bo‘yicha tadqiqotlar to‘liq olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Arra tishlaridan havo yordamida tola ajratib oluvchi forsunkalarni tadqiq qilish va joriy etish orqali samaradorlikni oshirish” mavzusidagi BMTning Startup tashabusslari 2TEXTILE

loyihasi hamda “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasining ilmiy tadqiqotlar rejasidagi mavzular doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Arra tishlaridan havo yordamida tola ajratib oluvchi forsunkalar tadqiq va joriy etish orqali kalta tola chiqishini kamaytirish, unumdorlikni oshiruvchi samarali texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jin mashinasida arra tishlaridan tolaning to‘liq yechib olish uchun pudash konstruksiyasiga kirayotgan havo hamda tirqishdan chiqayotgan havo tezligini oshirishni nazariy va amaliy tahlil qilish;

arra tishlaridan tolni yechib olishda havo pudash tirqishining berkitish va ochilishini hamda aniq yo‘naltirishni nazoratini ta‘minlovchi avtomatik boshqarilish tizimi yaratish;

yangi pudash konstruksiyasining modelini hamda konstruksiyada hosil bo‘layotgan static bosim qiymatlarini aniqlash;

ko‘p faktorli tajribalarni rejalashtirish va sifat ko‘rsatkichlari maksimal darajada saqlanishini ta‘minlovchi hamda samaradorlikni oshiruvchi parametrlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida paxtani dastlabki ishlash jin mashinalari ko‘rilgan.

Tadqiqotning predmeti jin mashinasining ishchi qismlari tolni yechib olish va so‘rib olish konstruksiyalari va tizimlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosi va mahsulotlarini sifatini aniqlash, o‘lchash, solishtirish, baholash, nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika va ehtimollar nazariyasi usullaridan, Solid Works chizma va grafik dasturidan foydalanib, jin mashinasi uchun yangi tolni havo yordamida yechib olish moslamasining optimal konstruksiyasini loyihalash, zamonaviy kompyuter dasturiy ta‘minoti MAPLE va EXCEL dasturlarini matematik modellashtirish jarayonlarini optimallashtirishning zamonaviy usul va vositalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinlash mashinasida arra tishlaridan tolni to‘liq yechib olish uchun pudash konstruksiyasiga kirayotgan havo hajmiga qarab tirqishdan chiqayotgan havo tezligini 127 m/s ga oshirishning matematik modeli ishlab chiqilgan.

arra tishlaridan tolni yechib olishda havo pudash tirqishining berkitish va ochilish masofasini rostlovchi chiziqli aktuatorning harakat tenglamalari asosida avtomatik boshqarilish tizimi ishlab chiqilgan;

tolni arra tishlaridan to‘liq yechib olishni ta‘minlovchi tirqishdan chiqayotgan havo tezligi hamda hosil bo‘layotgan bosim oshiruvchi VTS 12 ventilyatori qo‘llanilgan yangi pudash qurilmasi konstruksiyasi yaratilgan;

arra tishlaridan paxta tolasini to‘liq yechib olinishi va tolaning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini maksimal darajada saqlanishini ta‘minlovchi havo kirish quvuri va chiqish tirqishining kengligi, havo chiqish tirqishidan arragacha bo‘lgan masofaning ratsional parametrlari amaliy tajribalar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

yangi konstruksiyadagi tolni havo yordamida yechib olish qurilmasi arrali silindr arra tishlaridan tolni to‘la yechib olinishi ta‘minlanib, bu esa ish unumi 1,25

barobarga oshirishga va tolani tabiiy xususiyatini saqlagan holda sifatli tola olishga erishilgan;

havo pudash konstruksiyasi tirqishini yuzasini aktuatorlar yordamida boshqarishni Ladder avtomatik boshqaruv tizimi joriy qilish, tirqishni rostdash, havo oqimini arra tishlariga aniq yo'naltirish orqali yuqori samaradorligini ta'minlovchi optimal parametrlari aniqlangan;

optimal parametrlarga ega yangi konstruksiyadagi havo pudash tizimi havo oqimini $b=25 \text{ sm} \times h=25 \text{ sm}$ to'rtburchak yuzasi $S_1=625 \text{ sm}^2$ shakliga ega quvur orqali qabul qilib, havo chiqish tirqish kengligi $S=150 \text{ sm} \times 0,5 \text{ sm}$ yuzasi $S_2= 75 \text{ sm}^2$ o'lchamga ega bo'lganda ikkita arrali ilindr tishlaridan tolani yechib olish uchun har bir tirqishidan 63 metr /sekund tezlik bilan havo oqimi chiqib arra tishlaridan tolani yechib olib tolani havo orqali qabul qilish tizimiga uzluksiz, sifatli uzatishi aniqlangan;

o'tkazilgan tajriba sinovlari va olingan ma'lumotlarga ko'ra tolani ishlab chiqarish bo'yicha tavsiya etilgan yangi konstruksiyadagi havo pudash uskunasi ishlab chiqarishda qo'llanilganda 181 730 550 so'm sof daromad olish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi jinlash jarayonida paxta xom ashyo massasini oshib yoki kamayishi tolani ajratib olish samaradorligiga bog'liqligi, hamda tolani to'la yechib olinishi mahsulot sifatiga va samaradorligiga ta'sirini nazariy va amaliy tadqiqotlari natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning yuqori darajadagi muvofiqligi, tadqiqotlarning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisob-kitoblarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarning real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati havo yordamida tolani arra tishlaridan sifatli yechib olish samaradorligini oshiruvchi qonuniyati aniqlanganligi, shuningdek arrali silindrni tishlaridan havo pudash tirqishidan havoni har xil tezliklarini paxta xom ashyosini yechib olish jarayoni o'zgarishi samaradorlikni oshirish va kalta tolalar chiqishini kamayishi o'rtasidagi bog'lanishlari matematik asosini beradi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra yaratilgan yangi konstruksiyali tolani havo yordamida yechib olish moslamasining paxta tolasining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishi, paxta tolasini bir me'yorda chigitdan ajratib berishi uchun avtomatlashgan tizimda havo chiqish tirqishini yuzasini boshqarish orqali havo chiqish tezligini oshirishga erishib tolani uzluksiz sifatli yechib olish ta'minlangan va amaliy joriy qilingan texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Arra tishlaridan havo yordamida tola ajratib oluvchi forsunkalarni tadqiq qilish va joriy etish orqali tolani shkastlanishini oldini olish va unumdorlikni oshiruvchi samarali texnologiyani yaratishga doir ilmiy natijalar asosida:

Chigitdan tolani ajratib olishda jin mashinasiga joriy etilgan yangi konstruksiyadagi havo pudash va tola so'rib olish uskunasi "Art Soft Tex Cluster

FX” tasarufidagi “Pop paxta tozalash” korxonasiga joriy qilingan. (O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasining 2023 yil 23 oktyabrdagi №03/22-807 son ma’lumotnomasi). Natijada yangi konstruksiyadagi havo pudash va tola so‘rib olish uskunasini jin mashinasida joriy qilish orqali tola bo‘yicha ish unumdorligini 12-13 kg gacha oshirishga, kalta tola chiqishida olingan tola massasini 1,0% gacha kamayishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan 2 ta xalqaro shundan 1 tasi Scopus bazasida indeksatsiyalangan jurnalida chop etilgan va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola nashr etilgan, shulardan 5 ta maqola Respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarida chop etilib, O‘zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi dasturiy mahsulotiga 7 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Arrali tola ajratish texnologiyasi va paxta tolasini arratishlaridan yechib olish jarayoni ilmiy-adabiy sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda qo‘llanilayotgan arrali jin konstruksiyalari tahlil qilingan. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan biri AQSH kompaniyalarining chigitdan tolni ajratish texnika va texnologiyalari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan jin mashinasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yangi konstruksiyadagi tola yechib olish tizimini modelashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobda chigitdan ajragan tolalarning jin mashinasi arrali silindridan yechib olish jarayonini o‘rganish va takomillashtirish maqsadida qilingan ishlar yoritilgan.


Yangi konstruksiyadagi havo so‘rib olish tizimini modelashtirish. Biz Art Soft paxta tozalash korxonasidagi havo oqimini rostlab tarqatuvchi aerodinamik tizimni sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Sxemada qalin ko‘k chiziq bilan havo orqali tolni so‘rib olish va ko‘k uzuq chiziq bilan esa havo pudash tizimi tasvirlangan. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki 3 ta jin mashinasiga bitta pudash ventilyatori ulangan uning quvvati

14000m³/soat havo tarqatib har bir jin mashinasiga bir hilda taqsimlanishi uchun havo yetkazib berish quvurlari kesim yuzalari ketma-ketlikda kamayib boradi. Havoni pudash tizimida havoni yetkazib berish quvvati 3- rasmda tasvirlangan.


Usbu tizimda ishqalanish va tarmoq masofasi kattaligi tufayli havo bosimi hamda tezligini tarmoq ichida yoqotishlarini kamaytirish, ish unumdorligini oshirish va sifatli tola maqsadida yangi konstruksiyadi takominlashgan havo pudash va so'rib olish tizimi sxemasini yaratdik. Sxema 2-rasmda keltirilgan bo'lib 1-sxemadan farqi har bitta jin mashinasiga alohida 3 kvtli 3000ayl/min pudash ventilyatorlari o'rnatilgan hamda sifatli tola so'rib olish uchun qo'shimcha kondensolar o'rnatilgan bu o'z navbatida arra tishlaridan to'la tola yechib olish imkonini beradi.



1-rasm. Art Soft paxta tozalash korxonasidagi havo oqimini rostlab tarqatuvchi aerodinamik tizimni sxemasi



2- rasm. Yangi konstruksiyadi takominlashgan havo pudash va so'rib olish sxemasi




3-rasm. Havo pudash tizimini modelashtirish

Ushbu ishlarni malga oshirish uchun takomilashgan havo pudash va so'rib olish konstruktsiya modelini yaratishimiz va uni simulyatsiyadan o'tkazishimiz kerak bo'ladi.


Arra tishlaridan tolani sifatli yechib olishni ta'minlash uchun havo pudash tizimini Solidworks dasturida modellashtirish. Bunda 3D modelni ishlab chiqish bosqichida simulyatsiya bu xatolardan qochish imkonini beradi.

Biz oqimni va tezliklarni ko'rishimiz uchun properti menejerdagi rezultat qismida joylashgan traektoriya potoka tugmasini bosib pokazat tugmasini bosamiz va simulyatsiya ya'ni modellashtirish ishlarini bajaramiz



4-rasm bosim joylashuvi va ko'rsatkich sxemasi

Bizda bosim epyurasi va bosim taqsimlanishi 4-rasmda chizmada hosil bo'ldi bunda konstruktsiyani ichida 101,453kilopaskal natijani ko'rsatdi.




5-rasm Havo chiqish tirqishidagi havo tezligi epyurasi sxemasi

Quyidagi chizmada tirqishdan chiqayotgan havo epyurasi qurildi. Epyurani qurganimizda va ranglar bo'yicha taqsimlanishini ko'rganimizda havo chiqish tirqishida maksimal tezlik 131 m/sekund bo'lishi va tirqishdan 120m/s tezlik bilan havo chiqishi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichdan foydalanib biz 2 ta pudash mexanizmini loyihalashimiz mumkinligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Jin mashinasida havo yordamida tola ajratib oluvchi ishchi organlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida yangi

konstruksiyadagi jin mashinasi ishchi qismlarini loyixalash modellashtirish va taqiq qilish jarayoni yoritiladi. Jinda arrali silindr tishlaridan tolani takominlashgan havo pudash va paxta tolasini so'rib olish yordamida samarali yechib olish qurilmasini modellashtirdik .

6-rasmda havo 15 m/s tezlik bilan 5 havo kirish quvuriga kiradi bunda quvur hajmlari har hil o'lchamda tayorlangan bo'lib hatirqishidan chiqib 2 havo oqimini boshqaruvchi kronshteynga uriladi. Kronshteyn havo chiquvchi teshikni 5mmdan 10mmgacha aktuator 3 yordamida rostlab turadi. Kronshteyn tirqishidan chiqqan havo arrali silindr tishlariga ilashgan tolani yechib olib havo kirish quvuri 5 orqali so'rib olinadi va kondensorga uzatiladi.



6-Rasm. Tolani yechib olishni ijro qurilmalari

1-arrali silindr, 2-havo oqimini boshqaruvchi kronshteyn, 3-aktuator, 4-tola harakatlanish quvuri, 5-havo kirish quvuri.

Tadqiqotlarga ko'ra, normal sozlangan havo chiqarish qurilmalari uchun ejeksiyon koefitsienti pastki chiqarish uchun $K_e = 1,9 \div 2$, yuqorisi uchun esa $K_e = 1,5 \div 1,6$ ga teng.

Mavjud qurilmalarning chiqarish quvvati, bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, haddan tashqari yuqori, bu esa chiqindi havoni tozalash uchun zarur bo'lgan filtrli sirtlarga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshiradi. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 45 mm bo'lganda 53 metr/sekund natijani ko'rsatdi (7- rasm).



7-rasm. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 45 mm

Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 65 mm bo'lganda 49 metr/sekund natijani ko'rsatdi (8-rasm).



8-rasm. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 65 mm

Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 85 mm bo'lganda 33metr/sekund natijani ko'rsatdi (9-rasm).



9-rasm. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 85 mm

VTS -12 ventilyatorini harakteistikasi.

Parrak aylanish tezligi 1500 ayl/min; Bosimi P=1800Pa; Ish unimi L=3600m³/soat

Kirish quvuri b=300mm x h=300mm bo'lganda

$$v_k = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 0,30 \cdot 0,30)} = 11,1 \text{ metr / sekund}$$

Kirish quvuri b=250mm x h=250mm bo'lganda

$$v_k = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 0,25 \cdot 0,25)} = 16 \text{ metr / sekund}$$

Kirish quvuri b=200mm x h=200mm bo'lganda

$$v_k = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 0,2 \cdot 0,2)} = 25 \text{ metr / sekund}$$

Endi kirish tirqishini o'zgartirmay, chiqish tirqishi $b=1500\text{mm} \times h=7,5\text{mm}$
 $=150\text{sm} \times 0,75\text{sm}$ yuzasini aniqlaymiz: $S=150\text{sm} \times 0,75\text{sm}= 112,5\text{sm}^2$

$$v_{CH} = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 1,5 \cdot 0,005)} = 133 \text{ metr / sekund}$$

$$v_{CH} = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 1,5 \cdot 0,0075)} = 88,8 \text{ metr / sekund}$$

$$v_{CH} = \frac{L}{(3600 \cdot b \cdot h)} = \frac{3600}{(3600 \cdot 1,5 \cdot 0,01)} = 66,6 \text{ metr / sekund}$$


Bizni yangi konsruksiyadagi jin mashinamizda havo pudash tizimi va qabul qilish tizmi ikki komplekt bo'lganligi sababli VTS-12 ventilyatorini harakteistikasi to'la qondiradi.

Pudash tirqishi va havo oqimini actuator mexanizmi orqali avtomatik boshqarish tizimini modelashtirish.

Harakatning bir yo'nalishida 500H va boshqasida qaytishda 300H yukga ega bo'lgan 10 mm masofa yo'liga ega aktuator. Aktuatorning to'liq masofasi ishlatiladi.

$$F_M = \sqrt[3]{\frac{500^3 * 10 + 300^3 * 10}{10 + 10}} = 423,58 H$$


Ochiq arxitekturaga ega modulli aktuatorlar mavjud chegaralar doirasida moslashtirilgan yechimlarni taqdim etish uchun elementlarni tanlash va birlashtirish imkoniyatini beradi. Hall sensorlari, chegara kalitlari, potansiyometrlar, ishqalanish debriyajlari yoki qo'llab-quvvatlovchi gaykalar kabi dasturga xos texnologiyalarni joriy etish bilan dastur salohiyati kengayadi. (10-rasm) Ladder (Narvon) dasturlarini yaratish/tahrirlash funksiyasi quyidagi tartibda amalga oshiramiz (10-rasmga qarang).




10-rasm. Tolani yechib olishni avtomatik boshqarish qurilmalari joylashuv sxemasi

1-markaziy boshqaruv tizimi, 2- logik kontroller Delta DVP 12SA, 3-raqamli signalni analog signalga aylatiruvchi o'zgartirgich, 4-aktuator, 5- analog signalni raqamli signalga aylatiruvchi o'zgartirgich, 6-tirqishni kengligini rostlovchi kronshteyn, 7- arrali silindr

Qoʻllaniladigan asosiy qurilmalari programmalanuvchi logik kontroller Delta DVP 12SA, monitor Delta DOP B07S411K avtomatik boshqarish qurilmasiga sensorlardan bilan jihozlangan aktuator tizimlarini kiritdik. LADDER dasturida aktuatorni avtomatik boshqaruv texnologik jarayoni sxemasi tuzildi. Ushbu sxema asosida Ladder tizimida dasturini ishlash jaryoni yoritildi. Yangi takominlashgan havo pudash va soʻrib olish konstruksiyasini Ladder dasturida ijro qurilmalarni prinsipial sxemasi loyihaladik. Yangi konstruksiyadagi havo pudash va soʻrib olish qurilmasi Ladder tizimida SAP, ASP va kirish chiqish modullarini loyihalash sxemasi tuzildi.



11-Rasm. Ladder dasturi ma'lumotlarini kiritish jadvali



12-Rasm. Havo pudash va soʻrish tizimini actuators yordamida avtomatik boshqarishni Ladder dasturida tayorlangan sxemasi

Dissertatsiyaning “Yangi konstruksiyaga ega pudash va so’rib olish konstruksiyasining maqbul parametrlarini tanlash” deb nomalangan to’rtinchi bobida to’liq faktorli tajribaviy izlanishlar tahlili keltirilgan.

Tajriba sinovlari “Art Soft Tex Cluster FX” ga qarashli paxta tozalash zavodidan tajriba uchun olib kelingan Andijon-35 va C6524 nav paxta xom ashyolarida o’tkazilgan.

Optimallashtirishda muhim masala sifatida to’la arra tishlaridan ajratishda va so’rib olishda ta’sir qiluvchi muhim omillarni aniqlab olishdir. Bu jin mashinasida to’la ajratish samarali bo’lishiga erishish uchun xizmat qiladi. Optimallashtirish parametrlar sifatida quyidagilar tanlab olindi:


y_1 – Kalta to’la chiqish miqdori. %

y_2 –Ish unumdorligi. kg arra/soat

Jin mashinasi bo’yicha o’tkazilgan nazariy tadqiqot ishlarini adabiy sharhlar natijalarini hisobga olgan holda hamda dastlabki bir omilli eksperimentda chiquvchi parametrlarga ta’sir etuvchi kiruvchi omillar sifatida quyidagilar 4.1.1-jadvalda tanlab olindi: X_1 - Havo chiqish tirqishining kengligi, $X_1=5-10$ mm.

X_2 - Kameraga havo kirish quvirining kengligi $X_2=200-300$ mm.


X_3 - Havo chiqish tirqishidan arragacha bo’lgan masofa $X_3=45-85$ mm.




13-Rasm. Yangi konstruksiyadagi pudash mexanizmini jin mashinasida joylashuv sxemasi

1-tishli uzatma, 2-ta’minlagich, 3-qoziqli baraban, 4-setka, 5-pnemosilindr, 6-shnek iflos aralashma uchun, 7- ishchi kamera, 8- arrali silindr , 9 -havo pudash tizimi, 10-tola tortish tizimi, 11 - yuqori kolosnik, 11- ulik to’la uchun shnek, 12- taroq, 13 - pastki kolosnik.

Yangi konstruksiyadagi jinda takominlashgan pudash va so'rib olish qurilmasida tajriba sinovlarida 6500 kg paxta o'tkazildi. Har bir sinovlarda 500 kg dan paxta hom ashyoasidan foydalanib tajribalar 13 marta qaytadan amalga oshirildi. Ishlab chiqarish unumdorligi mos ravishda havo chiqish tirqishining kengligi, kameraga havo kirish quvirining kengligi va havo chiqish tirqishidan arragacha bo'lgan masofalar aniq o'lchashlar orqali to'g'ri tanlanganligi sinovlarda ma'lum bo'ldi. Tajribalar randomizatsiya qilingan tartibda o'tkazildi.



14- Rasm. Samaradorlikni oshirish uchun optimal omillarni aniqlashni universal grafigi.




15- Rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish uchun optimal omillarni aniqlashni universal grafigi.


Samaradorlikni oshirishni uchun optimal omillarni aniqlashni universal grafigi 14-rasmdan ko'rinib turibdiki havo chiqish tirqishining kengligi 5mm, kameraga havo kirish quvirining kengligi 250mm va havo chiqish tirqishidan arragacha bo'lgan masofa 45mm bo'lganda samaradorlikni 13,5 kg arra/soat kopyaytirishga erishiladi. Bir kamerali ikki silindrli jinni sinov natijalari shuni ko'rsatdiki topilgan optimal

rejim asosida ishlatish orqali arralarni ishlash muddatini 3 barobarga oshirishga erishamiz.


Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish uchun optimal omillarni aniqlashni universal grafigi 15-rasmdan foydalanib aytishimiz mumkinki havo chiqish tirqishining kengligi 5mm, kameraga havo kirish quvirining kengligi 250mm hamda havo chiqish tirqishidan arragacha bo'lgan masofa 45mm bo'lganda kalta tolalarni chiqishini kamaytirishga erishildi. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish 3,4% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni hisobga olib ishchi qismlarni eng optimal loyihalangan deb qabul qilamiz.




16-rasm. Tajriba asosida olingan kalta tolalarni chiqishi va ish unumdorligi bilan chiziqli regression tenglama ko'rsatkichlarini taqqoslash grafigi



17-rasm. Tajriba asosida olingan kalta tolalarni chiqishi va ish unumdorligi bilan logarifmik regression tenglama ko'rsatkichlarini taqqoslash grafigi.



18-rasm. Tajriba asosida olingan kalta tolalarni chiqishi va ish unumdorligi bilan polinomial regression tenglama ko'rsatkichlarini taqqoslash grafigi.



19-rasm. Tajriba asosida olingan kalta tolalarni chiqishi va ish unumdorligi bilan darajali regression tenglama ko'rsatkichlarini taqqoslash grafigi.

Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning matematik modelini tajribalar natijalaridan kelib chiqib, chiziqli regression tenglama 16-rasm, logarifmik regression tenglama 17-rasm, polinomial regression tenglama 18-rasm va darajali regression tenglama 19-rasm ko'rsatkichlarini taqqoslash grafiklaridan foydalanib regression tenglamani Excell dasturi yordamida aniqlaymiz. Excell dasturi natijasida quyidagi ko'rinishdagi regression modellar olishimiz mumkin:

M.S.Excel dasturida tuzilgan kalta tola chiqish miqdori va ish unumdorligi bo'yicha loyihalangan regression tenglamamiz ko'rsatkichlarini eng yaqin mos tushuvchilardan logarifmik va darajali matematik modellar to'g'ri keladi.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatga ega $y = -0,075\ln(x) + 3,8374$ va tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi esa $y = 2,1281\ln(x) + 6,9559$. Darajali matematik modelda esa kalta tola chiqishi $y = 3,8345x^{-0,02}$, tola bo'yicha unumdorlik esa $y = 7,2981x^{0,2075}$ ga teng bo'ldi.

Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki mavjud djin mashinasidagi havo pudash uskunasi mavsumda ishlab chiqargan momiq narxi 3 589 920 so'm, chigit narxi 69 889 880 so'm, tola narxi 218 016 490 so'm bunda jami umumiy foyda 291 496 290 so'mni tashkil etdi. Taklif etilayotgan yangi konstruksiyali havo pudash uskunasi bir mavsumda ishlab chiqargan momiq narxi 5 384 470 so'm, olingan chigit narxi 113 569 720 so'm olingan tola narxi 354 272 650 so'm bunda jami 473 226 840 so'm umumiy foyda ko'rishi aniqlandi. Natijada taklif etilayotgan yangi konstruksiyali havo pudash uskunasi ishlab chiqarishda qo'llash orqali 181730550 so'm sof daromad olish mumkinligi ma'lum bo'ldi.

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Arra tishlaridan paxta tolasini kafolatli ajratib olish va bunda sarf bo'ladigan energiyani kamaytirish uchun jinlash va arra tishlaridan tolani ajratib olish jarayonlarini yanada chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali resurs tejamkor tola yechish qurilmasi konstruksiyasini ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

2. Hisob-kitoblarda ko'rsatilgandek, statik bosimni qoplash usulidan foydalanish tizimning butun uzunligi bo'ylab bir bo'limning asosiy havo quvurini ishlatish bilan bir xil emas, balki yanada murakkab va hajmli hisoblash. Biroq, zamonaviy loyihalash va modellashtirish vositalari bo'limlarni tez va aniq tanlash imkonini beradi.

3. Tola so'rib olish usuldan foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi masalasi, albatta, aniq loyiha yechimiga bog'liq. Shunday qilib, ba'zi hollarda kerakli bosimni pasaytirish sizga kichikroq ventilyator o'lchamiga va kichikroq vosita hajmiga ega bo'lgan ventilyator moslamasini tanlash imkonini beradi va bu tejamkorlik allaqachon havo quvurlari uchun qo'shimcha harajatlardan kattaroq bo'lishi mumkin. Natijada, statik bosimni qoplash usulidan foydalanish energiyani tejaydigan so'rib olish tizimini olish imkonini beradi, bu tizim deyarli muvozanatni talab qilmaydi va o'zgaruvchan havo oqimi tezligi bilan barqaror ishlaydi.

Flow simulation dasturidan foydalanib simulyatsiya tajribasini o'tkazganimizdan so'ng grafikdan ko'rinib turibdiki eng yuqori tezlik 132 m/s ni tashkil etmoqda.

4. Pudash tizimida tirqishdan chiqayotgan havo 120 m/s tezlik bilan chiqishi aniqlandi. Demak forsunka tirqishini aktuator yordamida kenglikni boshqarib biz havo tezligini boshqarish xamda arra tishlaridan tola yechib olish samaradorligini oshiramiz. Tayyorlangan 3 o'lovli modeldagi konstruksiyamiz samarali ekanini namoyon etdi. Ushbu konstruksiya o'lchamlaridan foydalanib amaliy konstruksiya yasash uchun nazariy va amaliy asoslari tasdig'ini oldik.

5. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 45 mm bo'lganda 53 metr/sekund natijani ko'rsatdi. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 65 mm bo'lganda 49 metr/sekund ko'rsatdi. Havo pudash tizimi tirqish 5 mm arragacha masofa 85 mm bo'lganda 33 metr/sekund natijasini ko'rsatdi. Havo pudash tizimi tirqishidan 63 metr/sekund tezlik bilan havo chiqishi uchun biz ventilyatordan kirish quvurini kengaytirdik va havo pudash tizimida katta bosim xosil qilishga erishdik. Bizni yangi konstruksiyadagi havo pudash tizimi ventilyatordan kelayotgan havo oqimini $b=250\text{mm} \times h=250\text{mm}$ to'rtburchak shakliga ega quvur orqali qabul qilib olib butun havo pudash tizimi ichiga jamlab $S=150\text{sm} \times 0,5\text{sm}= 75\text{sm}^2$ o'lchamga ega tirqish orqali chiqarib yuboradi. Havo pudash tizimi tirqishidan 63 metr /sekund tezlik bilan havo oqimi chiqib arra tishlaridan tolani yechib olib havo qabul qilish tizimiga uzatadi. Bunda yo'naltiruvchi quvr diametrini 105 mm qilib qabul qilamiz.

6. Asosiy qurilmalari programmalanuvchi logik kontroller Delta DVP 12SA, monitor Delta DOP B07S411K avtomatik boshqarish qurilmasiga sensorlar bilan jihozlangan aktuator tizimlarni kiritdik. LADDER dasturida aktuatorni avtomatik boshqaruv texnologik jarayoni sxemasi tuzildi. Ushbu sxema asosida Ladder tizimida dasturini ishlash jaryoni yoritildi. Yangi takomilashgan havo pudash va so'rib olish konstruksiyasini Ladder dasturida ijro qurilmalarni prinsipial sxemasini loyixaladik. Yangi konstruksiyadagi havo pudash va so'rib olish qurilmasi Ladder tizimida SAP, ASP va kirish chiqish modullarini loyixalash sxemasi tuzildi.

7. Samaradorlikni oshirishni va kalta tolalarni chiqishini kamaytirish uchun optimal omillarni aniqlashni universal grafigidan foydalanib havo chiqish tirqishining kengligi 5mm, kameraga havo kirish quvirining kengligi 250x250mm hamda havo chiqish tirqishidan arragacha bo'lgan masofa 45mm bo'lganda, bitta arraga samaradorlik 13,5 kg ga koppaydi, hamda kalta tolalarni chiqishini 3,4% gacha kamaytirishga erishildi.

8. Eksperimental yo'l bilan olingan natijalar hamda M.S.Excel dasturi yordamida yaratilgan ko'rsatkichlar regression matematik modellari bilan taqqoslanganda tuzilgan modellar va eksperiment natijalari mos keladi. Tadqiqotlar natijasida olingan ko'rsatkich natijasida M.S.Excel dasturida tuzilgan kalta tola chiqish miqdori va ish unumdorligi bo'yicha loyihalangan regression tenglamamiz ko'rsatkichlarini eng yaqin mos tushuvchilardan logorifmik va darajali matematik modellar to'g'ri keladi.

9. Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki yangi konstruksiyali havo pudash uskunasi jami 473 226 840 so'm umumiy foyda ko'rishi aniqlandi. Natijada taklif etilayotgan yangi konstruksiyali havo pudash uskunasi ishlab chiqarishga qo'llash orqali 181730550 so'm sof daromad olish mumkinligi ma'lum bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.09.2023.Т.66.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МИРЗАКАРИМОВ МИРШАРОФФИДИН МИРЗААБДУРАХИМОВИЧ

**ИССЛЕДОВАНИЯ И ВНЕДРЕНИЕ ВЫСОКОПРОИЗВОДИТЕЛЬНЫХ
ФОРСУНОК ОТДЕЛЯЮЩИХ ВОЛОКНО С ЗУБЬЕВ ПИЛ ПРИ
ПОМОЩИ ВОЗДУХА**

**05.02.03 - Технология Технологические машины. Роботы, мехатроника и
робототехнические системы**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Наманган – 2024 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2020.2.PhD/T1602.

Докторская диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namti.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Азизов Шухрат Маматович
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Росулов Рузимурад Хасанович
доктор технических наук, доцент

Эргашев Жамолиддин Саматович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится 3 августа 2024 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD. 03/30.09.2023.T.66.01 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 100100, г.Наманган, ул. Касансайская-7, Административное здание Наманганского инженерно-технологического института, 3-й учебный корпус, 1-й этаж, малый конференц-зал, тел: (69) 228-76-71, факс: (69) 228-76-75. e-mail: niei_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована под № 590).

Адрес 100100, г.Наманган, ул. Касансайская-7, тел. (69) 228-76-71.

Автореферат диссертации разослан 19 июля 2024 года.

(реестр протокола рассылки № 16 от 15 июня 2024 года).

А.М.Махкамов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ш.А.Махсудов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Н.М.Сафаров

Председатель научного семинара по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На нашей Земле наблюдается постоянный повышенный спрос на хлопковое волокно, исходя из чего задачи использования инновационных технологий первичной переработки хлопкового сырья и дальнейшего совершенствования технологии его производства имеют важное значение. «Во всем мире производится 23-24 млн. тонн хлопкового волокна, однако его годовое потребление составляет 23,5-25,0 млн. тонн по сравнению с объёмом производства. Объём недостающего волокна компенсируется за счёт запасов волокнистого сырья»¹, в связи с чем особую актуальность приобретают проблемы повышения производительности работы хлопкоперерабатывающих машин с помощью методов оптимизации рабочих органов в процессе создания ресурсосберегающих конструкций, улучшение эксплуатационных характеристик машин путём разработки математических моделей производственных процессов, сохранения натуральных показателей качества получаемого хлопкового волокна, а также снижение себестоимости.

Лидерами в области разработки техники и технологии первичной переработки хлопка, производства технологических машин на уровне современных требований являются компании «Lummus» (США), «Shandon» (Китай) и «Вајај» (Индии). Благодаря бурному развитию машиностроения учёными нашей республики особое внимание уделяется совершенствованию рабочих органов существующих технологических машин, полному и качественному отделению и извлечению хлопкового волокна из зубьев пил при переработке районированных в промышленности сортов хлопка, созданию технологических решений по снижению выхода коротких волокон и их повреждения, а также применению новых конструкций всасывающих устройств путём использования новых научно-технических решений.

В нашей Республике реализуются широкомасштабные мероприятия, направленные на создание новых конструкций рабочих органов джин-машин на действующих хлопкоочистительных предприятиях, экономии ресурсов, проведению исследований созданию новой техники и технологий улучшение качества выпускаемой продукции, повышению производительности машин и эффективности рабочих органов, в реализации которых достигнуты определённые значительные результаты.

В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» отмечены важные задачи «...укрепления макроэкономической стабильности и сохранение высоких темпов экономического роста. увеличения конкурентоспособности национальной экономики, ... сокращения расхода энергоресурсов в экономике, широкого внедрения в производство энергосберегающих технологий».

В целях реализации указанных задач по первичной переработке хлопка, в частности, важное значение имеет разработка научно-технических решений и поднятие на качественно новый уровень фундаментальных основ по исследованию новых конструкций форсунок для отделения волокон от зубьев

пилы джин-машин с помощью воздуха в одной из основных технологических машин.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2017 года № ПП-3408 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы управления хлопковой отраслью», в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 марта 2018 года № 253 «О дополнительных мерах по организации деятельности хлопково-текстильных производств и кластеров», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии приоритетному направлению развития науки и технологий республики. III «Энергетика, энергосбережение ресурсосбережение, транспорт, машиностроение и приборостроение».

